

TEKNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Ibragimova Maryamhon G`ulomovna, Qo`qon DPI v.bdotsenti
E-mail: Ibragimova_maryamxon77@mail.com (ORCID 0000-0003-2837-5907)

Annotatsiya: Texnologiya darslarda integratsion yondashuv, mashg'ulotlar jarayonida amaliy konikma hosil qilish va foydalanish hamda ta'lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo'l va usullari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so`zlar: Pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, interfaol metodlar, hamkorlik pedagogikasi.

Abstract: An integrated approach to technology in classes, creation and use of practical knowledge in the course of training, and ways and means of using innovations and interactive methods in the educational process are shown.

Key words: Pedagogical technologies, innovation, interactive methods, cooperative pedagogy.

Аннотация: Показан комплексный подход к технологиям на занятиях, созданию и использованию практических знаний в процессе обучения, а также пути и средства использования инноваций и интерактивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Педагогические технологии, инновации, интерактивные методы, кооперативная педагогика.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xususiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoyitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshiralayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir¹¹.

Texnologik ta'lim o'qituvchisi oliy ta'lim muassasasida pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini

¹¹Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

amalga tadbiiq etishda umumiy o'рта ta'lim maktabi o'quvchilarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning metodlari, dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, o'quvchilarda kasblarga oid bilim berish ko'nikish, moslashish, tanlash, kasbni shakllantirish yoki boshqa kasbni tanlash, tashkiliy shakllari hamda vositalari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish ishlarini olib borishi lozim.

O'quvchilarni texnologiya fanida kasb tanlashga yo'llash jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'ladilar. Umumiy o'рта ta'lim maktablarida o'quvchilarni Texnologik ta'lim, kasb tanlashga yo'llash tarkibida kasbga yo'naltirish ularning zamonaviy va milliy kasb - hunarlarni o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Kasb tanlashga yo'llash va kasbga yo'naltirish ishlarini xalq xo'jaligi tarmoqlari istiqbolini hamda kasb-hunar kollejlari sohashtirilganligini hisobga olgan holda bajarishiga xizmat qiladi.

“OILA DAVRASIDA KASBIY QIZQISHLARNI HIMOYA QILISH” O'YINI

O'yinning maqsadi: o'quvchining ota-onalar (do'stlar, o'qituvchilar va boshqalar.) qarshisida o'zi tanlagan kasbini himoya qilishga o'rgatish.

Mazkur o'yindan mustaqil hamda “Kasbiy maslahat” o'yiniga tayyorlov o'yini sifatida foydalanish mumkin.¹²

O'yin 8-9 sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. O'yinda 2-3 kishidan iborat guruh ishtirok etadi. O'yin 15-20 daqiqa davom etadi. O'yin uchun alohida xona zarur (Sinfning bir burchagi yoki "Kasbiy maslahat" o'yini bilan birgalikda tashkil etish ham mumkin).

O'yinning olib borish tartibi

O'yin maxsus tayyorgarlik bosqichini talab etmaydi.

1-bosqich. O'quvchilarga rollar taqsimlanadi: “o'qiyotganlar” (bolaning o'zi), uning “ota-ona”si yoki “qarindoshlar”i (tog'a, ona, buvi, katta opa va boshqalar)

2-bosqich. Boshlovchi (psixolog) ko'rsatmalarni baland ovozda o'qib beradi.

Yo'riqnoma: Tasavvur qiling, o'quvchi uyiga keladi va o'z kasbiy maqsad-niyatlarini bildiradi (agar kasb hali tanlanmagan bo'lsa, o'quvchiga kasbning qanday ekanligi ahamiyati yo'qligi va bu haqida umuman o'ylab ko'rmaganligini aytishi mumkin). Ota-onalar uning bu qaroriga qarshi chiqib, uni bu fikrdan qaytarishga harakat qiladilar. Natijada nizo yuzaga keladi, bu holatda kimning dalillari ishonarli bo'lsa, uni asoslashga kirishadilar. Fikrlarni majburan singdirish lozim emas, majburlash fikrlarning kuchsizligini anglatadi.

¹² Ibragimova, M., & G'ulomovna, I. M. (2023). Development of Small Business and Private Entrepreneurial Activity Through Vocational Direction. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 1(1), 41-43.

3-bosqich . Boshlovchi ishtirokchilarni o'tirib olishlarini va o'yinni boshlashlari mumkinligini bildiradi. Boshlovchi bu o'yinda "Kasbiy maslahat" o'yinidagidan ko'ra kamroq ishtirok etishi lozim. O'yinda kasbiy yordam ko'rsatish emas, balki bolaga tanish bo'lgan oilaviy munosabat sahnalashtirilmoqda

4 –bosqich. O'yinni muhokama qilish

Agar o'yin "Kasbiy maslahat" da foydalanilganda unga muhokama qilmasdan yondashish mumkin. Aksincha uni mustaqil tashkil etganda esa ishtirokchilarning har birini munosabatiga alohida etibor qaratib, o'quvchilarning kasb tanlash rejalari to'g'ri tuzilgan va tuzilmaganligi muhokama qilinadi.

Rolli o'yinning diagnostik imkoniyatlari

O'quvchilarning ushbu o'xshash sharoitda ota-onalari xatti-harakatlarini ifoda eta olganliklari o'yinni ularning o'z ota-onalari haqida axborot olishga imkon beradi. Biroq , olingan bunday ma'lumotlarni muhokama qilishda ma'lum ehtiyotkorlik zarur., chunki o'quvchilar boshqalarning ota-onasini imittsiya qilgan bo'lishi ham mumkin

O'yinni borishida duch kelinadigan qiyinchiliklar

O'quvchilar o'yinda rollariga his-hayajon bilan kirishib ketib, uning asosiy maqsadini unutib qo'yadilar. Bunday xollarda boshlovchi o'yinda "katta bobo" rolini o'ziga olib o'yin tizgini qaytarishi mumkin. Ayrim hollarda o'quvchilar o'yin jarayonida hamkorlikda ishlay olmasliklari muammoning echimi to'liq topilmasligiga olib keladi.¹³

O'yinni rivojlantirish istiqbollari

Ushbu o'yin natijalaridan kelib chiqib o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning kasb tanlashi mavzusi yuzasidan suhbat o'tkazish qoidalarini shakllantirish mumkin. Agar o'yin bolalar va ularning ota-onalari ishtirokida tashkil etilsa yanada ijobiy va jonli ko'rinish oladi. Mabodo "Oila davrasida kasbiy qiziqishlarni muhokama qilish" o'yinini "Kasbiy maslahat" bilan birgalikda tashkil etishda quyidagi tartibga amal qilish lozim:¹⁴

1. Ishtirokchilar uchun umumiy yo'riqnoma.

Rollar taqsimoti quyidagicha bo'ladi: ikkita kasb yuzasidan maslahatchi, 3-4 a'zoli oila.

2.Oiladagi oilaviy nizo sahnasi ijro etiladi ("Oila davrasida kasbiy qiziqishlarni muhokama qilish" o'yini bo'yicha). Maslahatchilar tashqariga chiqadilar va kasbiy maslahatning umumiy tuzilishi bilan tanishadilar Barcha bosqich 10-15 daqiqaga mo'ljalangan.

Shunday qilib, "Kasbiy maslahat" o'yiniga oila a'zolari va maslahatchilar maxsus tayyorgarlik ko'radilar.

4. Kasb bo'yicha maslahatchilar ota-onalarining ishtirokida o'quvchiga maslahat beradilar. Maslahatchilar maslahat berish tartibi aks ettirilgan varaqdan

¹³ Ibragimova, M. G. (2022). O 'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISH. *PEDAGOGS jurnali*, 4(1), 174-182

¹⁴ Ибрагимова, М. Г. (2019). НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ШИТЬЯ В ТРУДОВОМ ОБУЧЕНИИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-5), 113-116.

foydalanmaydilar. Agar maslahatni tashkil etish ular tomonidan yaxshi o'zlashtirilmagan bo'lsa, u holda boshlovchi ularga o'yin davomida uning tashkil etish sxemasiga nazar tashlashlarini taklif etishi mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha "Kasbiy maslahat" o'yinining ushbu varianti ko'p vaqtni oladi (o'yinning dastlabki ijrosi kamida bir soat vaqtni oladi). Ammo o'yin davomida kasb tanlashga doir murakkab masalalarning yechimini topishga imkoniyat yaratiladi.

Xulosa o'rnida: Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanib, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Maktabda o'quvchilar texnologiya fanini qunt bilan o'zlashtirib borishlari uchun darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalardan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so'zi, 2017-yil, 16-iyun

3. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. –T.: "O'qituvchi", 1990. – 232 b.

4. Ibragimova, M., & Gulomovna, I. M. (2023). Development of Small Business and Private Entrepreneurial Activity Through Vocational Direction. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 1(1), 41-43.

5. Мариям, И. (2018). НАПРАВЛЕНИЕ МОЛОДЕЖИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 29-31.

6. Ibragimova, M. G. (2022). O 'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISH. *PEDAGOGS jurnali*, 4(1), 174-182.

7. Ибрагимова, М. (2016). РОЛЬ ВНЕУРОЧНЫХ ЗАНЯТИЙ. *Ученый XXI века*, (10).

8. Gulomovna, I. M. (2022). IN ORGANIZING A CIRCLE TRAINING USING INTERACTIVE METHODS.

9. Ибрагимова, М. Г. (2011). Факторы морально-нравственного ориентирования учащихся профессиональных колледжей на предпринимательскую деятельность. *Молодой ученый*, (12-2), 99-101.